



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 15-fevral

71-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 31-son qarori ijrosi haqida”gi 69-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 31-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2025-yil 12-fevral dagi 69-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 31-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 69-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni (keyingi o‘rinlarda – biotexnik tadbirlar) o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

biotexnik tadbirlarni o‘tkazish maqsadi va usullari, biotexnik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi, biotexnik tadbirlar o‘tkaziladigan hududlar hamda ularni o‘tkazish bo‘yicha talablar, biotexnik tadbirlarni o‘tkazish yakunlarini monitoring qilish va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani rasmiylashtirish hamda biotexnik tadbirlarni moliyalashtirish tartibi;

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi:

2025-yil 1-aprelga qadar hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma‘lumotlar bazasida yuritilishini ta‘minlashi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativhuquqiy hujjatlarni uch oy muddatda ushbu qarorga muvofiq lashtirishi;

biotexnik tadbirlarni o'tkazuvchi subyektlar tomonidan biotexnik tadbirlarning belgilangan tartibda va muddatlarda samarali o'tkazilishi bo'yicha profilaktika va nazorat chora-tadbirlarini amalga oshirishi;

O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda keng yoritilishini tashkil etishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (T.Mamatqulov):

2025-yil 1-aprelga qadar hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha biotexnik tadbirlarni o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasida yuritilishini ta'minlasin;

manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan meyoriyhuquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

biotexnik tadbirlarni o'tkazuvchi subyektlar tomonidan biotexnik tadbirlarning belgilangan tartibda va muddatlarda samarali o'tkazilishi bo'yicha profilaktika va nazorat chora-tadbirlarini amalga oshirsin;

Tuman hokimi matbuot kotibi (Sh.Kenjayeov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmunmohiyati ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda keng yoritilishini tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov